



YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY-HUQUQIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17365000>

Ernazarov Ravshan Ummatovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali "Tabiiy-ilmiy, gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrası mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dots.nt
Toshkent shaxri. ravshan 62@mail.ru +94 670 86 70.*

Эрназаров Равшан Уматович

Заведующий кафедрой «Естественных, гуманитарных наук и физической культуры» Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, кандидат философских наук, доцент - г. Ташкент. ravshan 62@mail.ru +94 670 86 70.

Ernazarov Ravshan Ummatovich

*Head of the Department of "Natural Sciences, Humanitarian Sciences and Physical Culture" of the Tashkent Branch of the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology, Candidate of Philosophy, Assoc. Prof. - Tashkent city.
ravshan 62@mail.ru +94 670 86 70*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada jamoatchilik nazorati, nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyati, jamoatchilik nazoratini demokratik jamiyatni rivojlantirishda o'rni yoritilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *Konstitutsiya, demokratiya, huquqiy norma, qonun, fuqorolik jamiyati, saylov tizimi, jamoatchilik nazorati.*

ANNOTATION: *This article describes public control, the activities of non-governmental organizations, the role of public control in the development of a democratic society.*

KEYWORDS: *Constitution, democracy, legal norm, law, civil society, electoral system, public control.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье описывается общественный контроль, деятельность неправительственных организаций, роль общественного контроля в развитии демократического общества.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Конституция, демократия, правовая норма, право, гражданское общество, избирательная система, общественный контроль.*

Davlat va jamiyat boshqaruvi murakkab jarayon bo'lib, uni tashkil etish va boshqarish bo'yicha turli xil model,

boshqaruv shakllari hamda yo'llari ishlab chiqilgan. Insoniyat tomonidan ming yillar davomida "taraqqiyparvar davlat", "komil



jamiyat" barpo etish g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat insoniyat tomonidan asos solingan davlat va jamiyat hayotining eng oliy shakllari hisoblanadi.

Tarixan jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati bo'lmagan yoki u yetarli darajada kuchga ega bo'lmagan mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishini ham tasavvur qilish qiyin.

Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jamoatchilik nazorati, bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir.

Tarixda davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining olib borilishi bo'yicha buyuk alloma va faylasuflar asarlari orqali keltirib o'tilgan ko'plab misollar mavjud.

Xususan, qadimgi yunon faylasufi Arastu (miloddan avvalgi 384-322) o'z asarlarida xalqning mansabdor shaxslar va hukmdorlar ustidan nazoratini davlatning siyosiy barqarorligi hamda gullab-yashnashining eng muhim shartlaridan biri deb hisoblagan.

Yurtimizda ham jamoatchilik nazorati instituti uzoq tarixiy ildizlarga ega. Insoniyat tafakkuri tamaddunida o'z asarlari bilan ulkan iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining "Fozil odamlar shahri" asari orqali qonun ustuvor bo'lgan adolatli jamiyat tushunchasini teran tahlil qilgan. Unga ko'ra, fuqarolik jamiyatining har bir axloqli a'zosida o'n ikki xislat bo'lishi, adolat uchun kurashish, haqiqatni har narsadan ustun deb bilish, eng muhimi, yaxshi insoniy fazilatlariga ega bo'lish jamiyat a'zolarining

bosh maqsadi bo'lishi, insonlar ma'naviyatli, ma'rifatli, ijtimoiy mas'uliyati yuksak bo'lishi lozim.

Bugun O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlari demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati rivojida dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda uning huquqiy asoslari yaratilgan. Binobarin, Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi, bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi belgilangan. "O'zbekiston Respublikasi jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun esa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishda dasturilamal bo'lmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarning zamirida inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi yotadi. Yurtimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi uchun farovon turmush tarzini yaratish va shu orqali odamlarni rozi qilishga qaratilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy



davlat”, deb belgilangan. Ya’ni, Bosh qomusimizda insonga e’tibor, uning qadrini ulug’lash, g’amxo’rlik qilish davlat va jamiyatning eng asosiy burchi sifatida mustahkamlab qo’yildi.

Xususan, «Jamoatchilik nazorati to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi, jamoatchilik kengashlari instituti shakllantirildi, 2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksi tizimi joriy qilindi hamda ochiqlik to’g’risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasi ko’ra “O’zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o’z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o’zini o’zi boshqarish, referendumlar o’tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi”. Konstitu-siyaning 49-moddasi muvofiq “Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko’rsatilishiga yo’l qo’ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o’tkaziladi”. Shuningdek, Konstitutsiyaning 148-moddasiga ko’ra “Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O’zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi”.

Yangilanayotgan O’zbekistonda amalga oshirilayotgan shaffoflikka asoslangan yangi islohotlar samarasi tufayli jamiyatimizda jamoatchilik nazoratining ta’sir doirasi ham sezilarli ravishda kuchaymoqda. “Jamoatchilik nazorati to’g’risida” gi qonun, “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to’g’risida”gi Farmoni, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar yig’inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini tubdan takomillashtirish haqida”gi hamda “Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo’yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi qarorlari davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta’sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bundan ko’zlangan maqsad fuqaro – jamoat tashkilotlari – davlat birligini mustahkamlash orqali xalqning hokimiyatdan, hokimiyatning xalqdan uzoqlashishining oldini olishdir.

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan pragmatik siyosat, ochiq-oshkora va shaffoflikka asoslangan yangi bosqichdagi islohotlar samarasi o’laroq, bugun jamoatchilik nazoratining ham ta’sir doirasi sezilarli ravishda ortdi. Jumladan, xalq manfaatlarini ko’zlab qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiyhujjatlar, eng avvalo, umumxalq muhokamasidan va jamoatchilik ekspertizasidan o’tkazilayotgani, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va ularning rahbar-mutasaddilari ishiga munosabatlar bildirilayotgani natijasida ko’plab kamchilik va muammolar, qonunbuzilish holatlariga chek qo’yilmoqda.



Bu esa ko'p jihatdan ijtimoiy himoyada namoyon bo'ladi. Masalan, yangilangan Konstitutsiyamizda davlat kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, uy-joy bilan ta'minlash va inson qadri yuksaltirish bo'yicha o'ziga qator yangi majburiyatlarni oldi. Natijada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar avvalgiga nisbatan 3 barobar ko'paydi.

Jamiyat va mamlakat ravnaqi uning ishtirokchilari harakati bilan amalga oshadi. Bu jarayonda esa jamoatchilik nazorati alohida o'rin tutadi. Bevosita shohidi bo'lib turganimizdek, Harakatlar strategiyasi bilan boshlangan inson qadri, huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi oqilona boshqaruv siyosati va keng qamrovli islohotlar bugun Taraqqiyot strategiyasi asosida jadal davom ettirilmoqda. Bu, albatta, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularga ko'proq huquq va vakolatlar berish bilan uzviy holda kechmoqda.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organi bilan birgalikda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtirok etishi esa jamiyat hayotining demokratik jarayonlar bilan bog'liq asoslari chuqur ildiz otib, mustahkamlanib borayotganini anglatadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, muhim ijtimoiy omillardan biri – jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish kabi yo'nalishlar amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismiga aylandi.

Bugun shunchaki jamoatchilik nazoratini emas, balki ta'sirchan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish masalalari Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillar mobaynidagi rivojlanish yo'lining asosi hisoblangan muhim hujjat – Taraqqiyot

strategiyasining «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» nomli birinchi ustuvor yo'nalishida alohida maqsad sifatida mustahkamlab qo'yilgani bejiz emas.

Sa'y-harakatlar natijasida jamoatchilik nazoratini yangi bosqichga olib chiqish, har bir sohada uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki jamoatchilik nazoratini kengaytirish jamiyat taraqqiyotining barcha jabhasida yuqori samara berishi, shubhasiz.

Jamoatchilik nazorati va uning huquqiy asoslari. Jamoatchilik nazorati – jamiyat va davlat miqyosida qonun ustuvorligini ta'minlash hamda adolatni qaror toptirish uchun o'ta zarur bo'lgan eng samarali amaliyot. U jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan markaziy va mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organi, davlat tashkilotlari, qonunlarga muvofiq, davlatning alohida vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Jamoatchilik nazorati institutining huquqiy asoslari haqida gap ketganda, avvalo, Asosiy qonunimizning 32-moddasini keltirib o'tamiz. Unda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi, bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi haqidagi norma mustahkamlab qo'yilgan.



Bosh qonunimizda jamoatchilik nazorati subyektlari hisoblangan fuqarolik jamiyati institutlari haqidagi konstitutsiyaviy normalarni "Jamoat birlashmalari" nomli XIII bobda, «Ommaviy axborot vositalari» deb nomlangan XV bobda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bag'ishlangan 105-moddada ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi, «Jamoat fondlari to'g'risida»gi qonunlarda hamda sohaga doir boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur institutning huquqiy asoslari belgilangan va tizimli ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Jamoatchilik nazorati subyektlari .Jamoatchilik nazorati subyektlari fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalaridir. Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi raqamlar jamoatchilik nazorati juda katta kuch bo'lib, ularda o'zaro hamkorlik qilish orqali muntazam, tizimli va samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyati mavjud ekanidan dalolat beradi. Bunga yana davlat tomonidan

ularning sonini ko'paytirish va faoliyatini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga doimiy e'tibor berilayotganligini inobatga olsak, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdan davlat organlari ham manfaatdor ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xalq tili bilan mahalla deganda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg'un va bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli ko'prik vazifasini bajaradigan noyob ijtimoiy tuzilmani tushunamiz.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar, veteranlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari tarzida so'nggi yillarda jamoatchilik nazorati subyektlari sifatida keng ko'lamli faoliyatni amalga oshirmoqda.

Ta'kidlash joiz, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari – gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar bugun xalq ovozi, tom ma'noda, «to'rtinchi hokimiyat»ga aylanmoqda.

Jamoatchilik nazorati obyekti va shakllari. Jamoatchilik nazorati obyekti, ya'ni jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan nazorat qilinadigan faoliyat turlari davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining:

- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek,



rivojlanishning davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga doir faoliyati. Bunga barchaning yodiga tushishiga oson bo'lishi uchun jamoatchilik fikri asosida ijobiy hal etilgan «tonirovka» masalasini, daraxtlar va boshqa o'simliklarga shikast yetkazganlik, ularni qonunga xilof ravishda kesganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik kuchaytirilganini misol qilib keltirish mumkin. Taraqqiyot strategiyasi loyihasi ham tom ma'noda inson va jamiyat manfaatlari yo'lida ishlab chiqilgan, jamoatchilik mulohazalari, takliflari bilan yanada boyitilib, takomiliga yetkazilgan;

- fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta'minlashga oid faoliyati. Ma'lumki, har bir davlat organi va tashkiloti faoliyatining eng birinchi galdagi vazifasi inson huquqlariga rioya etish, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi;

- o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarish borasidagi faoliyati. Bu orqali «Inson qadri uchun», «Davlat – inson uchun», «Davlat xizmatchisi – xalq xizmatkori», «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan ezgu tamoyillar bugun bu yo'nalishda yurtimizda amalga oshirilayotgan ezgu islohotlarni yaqqol namoyon etadi;

- davlat xizmatlarini ko'rsatish faoliyati. Bunda «Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi» degan muhim tamoyilga amal qilinayotgani uning hayotiy ifodasini ko'rsatadi. Kechayotgan bu islohotlarning uyg'unligi va izchilligini ta'minlash barobarida, davlat xizmatlarini sifatli bajarish

uchun vakolatli organlar va tashkilotlarning mas'uliyati hamda javobgarligini oshirishga ham xizmat qilmoqda;

- ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati hisoblanadi.

Bugungi kunda jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlar kayfiyatini va mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda jamoatchilik nazorati – davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar, davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisoboti va axborotini eshitish kabi shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'z navbatida, tayyorlangan konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi. E'tiborlisi, xalqimiz manfaatlari yo'lida umumxalq muhokamasi muddati 2 marta uzaytirildi va bu davrda fuqarolarimizdan jami 150 mingdan ortiq takliflar kelib tushgani ham jamoatchilik nazoratining o'ziga xos amaliy ko'rinishini anglatib turibdi.

So'nggi yillarda jamoatchilik fikrini o'rganish ommaviy tus olmoqda. Misol uchun, «Ochiq budget» axborot portali orqali har yili ikki marotaba (fevral, iyul) o'tkaziladigan «Tashabbusli budget» yo'lga qo'yildi. Bu umummanfaatli muammolarni bevosita fuqarolarning ko'pchilik ovozi bilan hal etish imkoniyati bo'lib, amaliyotda natijadorligi bilan o'zini oqlamoqda. E'tiborli



jihati, har bir tuman budjetining kamida 5 foizi yo‘naltiriladigan «Fuqarolar budjeti» dasturi doirasidagi mablag‘larni jamoatchilik fikrini o‘rganish natijalari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil etishga e‘tibor qaratilmoqda.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslari hisobotlari va axborotini eshitish bo‘yicha jahon tajribasida o‘xshashi yo‘q amaliyot – har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha hokim yordamchisi, ayollar va yoshlar masalalari bilan alohida, manzilli ishlashni yanada jadallashtirish maqsadida xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi lavozimlari joriy qilingan. Ular o‘z faoliyati haqida o‘zini o‘zi boshqarish organlariga axborot berib borishi kerak.

Konstitutsiyaviy islohotlar davrida «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonun loyihasida Yangi O‘zbekistonni kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatiga aylantirish g‘oyasi asosida fuqarolik jamiyati institutlari maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yish maqsadida Konstitutsiyaning 56-moddasi yangi tahrirda bayon qilinmoqda, 98- va 122-moddalari esa yangi normalar bilan boyitilmoqda. Ya‘ni birinchidan, ilk bor «fuqarolik jamiyati institutlari» iborasi kiritilmoqda. Ikkinchidan, mahalla va ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari qatorida qayd etilmoqda. Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilmoqda. To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlariga respublika budjeti shakllantirilishi va ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolati berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. 53-bet.
- 2.Usarova F. Jamoatchilik nazorati: tarixi, zamonaviy qarashlar va yondashuvlar. https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik_nazorati_tarixi_zamonaviy_qarashlar_va_yondashuvlar_391305
- 3.Usarova F. Jamoatchilik nazorati: tarixi, zamonaviy qarashlar va yondashuvlar. https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik_nazorati_tarixi_zamonaviy_qarashlar_va_yondashuvlar_391305
- 4.Tokvil A. Demokratiya v Amerike / A.Tokvil; per. s fr.; predisl. G. Dj. Laski. – M.: Progress, 1992. – 554 b.
- 5.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023. 32- modda.
- 6.Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 03/18/474/1062-son
- 7.Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. [uza.uz/uz/politics/konstitutsiya va onun_ustuvorligi.07.12.2019](https://uza.uz/uz/politics/konstitutsiya_va_onun_ustuvorligi.07.12.2019).
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>